



# ISTE'MOL BOZORI


(dastlabki ma'lumot)

2018 yil yanvar-iyul

Chakana savdo tovar aylanmasi (ovqatlanish korxonalarini qo'shgan holda) 2018 yilning yanvar-iyul oylarida 2710,3 mlrd.so'mni tashkil qilib, o'tgan yilning shu davriga nisbatan 5,0 foizga oshdi.


Yirik korxonalarning chakana savdo tovar aylanmasidagi ulushi 17,8 foizni tashkil etdi. Yirik korxonalarning o'sish sur'atini o'tgan yilning shu davriga nisbatan 24,5 foizga ko'payishiga olib keldi.

## *Xorazm viloyati shahar va tumanlar kesimida 2018 yil yanvar-iyul oylarida ovqatlanish tashkilotlarini qo'shgan holda, chakana savdo tovar aylanmasi va o'sish sur'atlari*



Chakana savdo tovar aylanmasi (umumovqatlanish korxonalarini qo'shmaganda) hajmida katta ulushga ega bo'lgan Urganch shahri (35,5 foiz), Xazorasp tumani (14,0 foiz), Urganch tumani (8,7 foiz) ni tashkil qilib chakana savdo tovar aylanmasining o'sishiga ijobiy ta'sir ko'rsatdi.

### Hududlar kesimida jami chakana savdo tovar aylanmasining ulushi, foizda



Ovqatlanish tashkilotlarini qo'shgan holda, chakana savdo tovar aylanmasi aholi jon boshiga o'tgan yilga nisbatan 105,3 foizni tashkil qilib, 1497,3 ming. so'mni tashkil etdi (2017 yil yanvar-iyul oyida 1166,7 ming. so'mni tashkil qilgan edi).

O'rtacha jon boshiga tovar aylanmasining eng yuqori ko'rsatkichlari Urganch shahri (6843,0 ming. so'm), Xazorasp tumani (1580,1 ming. so'm) va Gurlan tumanida (1487,6 ming. so'm) kuzatildi.

Ovqatlanish tashkilotlarining chakana tovar aylanmasi hajmi 44,8 mlrd. so'mni tashkil etdi va o'tgan yilga nisbatan 2,9 foizga oshdi. Chakana savdo tovar aylanmasining umumiy hajmida ovqatlanish korxonalarining ulushi 1,7 foizni tashkil etdi.

### Aholi jon boshiga chakana savdo tovar aylanmasi


Shahar va tumanlar	Ming. so'm	o'tgan yilning shu davriga nisbatan, foizda
Urganch shahar	6843,0	110,5
Xiva shahar	1065,5	108,5
Bog'ot tuman	774,9	102,6
Gurlan tuman	1487,6	105,1
Qo'shko'pir tuman	651,4	101,4
Urganch tuman	1232,7	100,6
Xazorasp tuman	1580,1	101,8
Xonqa tuman	907,5	100,8
Xiva tuman	382,4	100,3
Shovot tuman	945,6	106,9
Yangiariq tuman	1260,0	101,3
Yangibozor tuman	950,1	101,0

## O'TGAN DAVRLARDA KICHIK TADBIRKORLIKNING CHAKANA SAVDODAGI ULUSHI

Kichik tadbirkorlikning tovar aylanmasi o'tgan yilning shu davriga nisbatan 101,5 foizni tashkil qiladi.

Umumiy chakana savdo tovar aylanmasining 82,2 foizini tashkil qiladi.

Kichik tadbirkorlik umumiy tovar aylanmasining deyarli 281,4 mlrd. so'mi uyushmagan savdo hisobiga to'g'ri keldi. Ushbu sektorning jami chakana savdo tovar aylanmasidagi ulushi 10,4 foizni tashkil etadi.



Tashqi iqtisodiy faoliyat va savdo statistikasi  
bo'limi

Nashr uchun mas'ul: Sh. Gadaniyazov  
(0371) 230-87-68